

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi



Madhiya tantanavor qo'shiqdir.

Har bir mamlakatning o'z **madhiyasi** bor. Madhiyaning har bir satri Vatanga muhabbat hissi bilan yo'g'rilgan. Bu shunchaki oddiy qo'shiq emas, balki odamlarni birlashtiruvchi va ular yashayotgan zamin haqida eslatib turuvchi ramzdir. Unda ona yurtga bo'lgan muhabbat **madh** etiladi.

Madhiya yangraganda odamlar uni hurmat bilan o'rnilaridan turib tinglaydilar. O'z yurtiga nisbatan faxr va ehtirom belgisi sifatida esa odamlar o'ng qo'lini ko'ksiga qo'yadilar.



Mutal Burhonov –
O'zbekiston xalq artisti,
taniqli kompozitor,
O'zbekiston Respublikasi
Davlat madhiyasi
musiqasining muallifi.
U ona Vatanimizni madh
etuvchi ko'plab chiroyli
qo'shiqlar yaratgan.



Abdulla Oripov –
O'zbekiston xalq shoiri,
O'zbekiston Respublikasi
Davlat madhiyasi so'zlari-
ning muallifi. Uning butun
ijodi Vatanga va o'z xalqiga
mehr-muhabbat hissi bilan
yo'g'rilgan.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi

*Abdulla Oripov so'zi
Mutal Burhonov musiqasi*



1

Serquyosh, hur o'lkam, elga baxt, najot,
Sen o'zing do'stlarga yo'ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilm-u fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

2

Bag'ri keng o'zbekning o'chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo'r qanot!
Istiqlol mash'ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo'l obod!

NAQAROT:

Oltin bu vodiylar – jon O'zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug' xalq qudrati jo'sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!



**Ota-onangiz bilan birgalikda
O'zbekiston Respublikasining
Davlat madhiyasini yod oling.**

